

MUNISGA MAONIY YO'LIDA PIR DURUR...

Yorqinoy Eshchanova

*UrDU akademik litseyi olivy toifali
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Mehribon Qo'shnazarova

*UrDU akademik litseyi olivy toifali
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri so'z Shermuhammad Munis Xorazmiyning so'z qo'llash mahorati tahlil qilinadi.*

Annotatsiya: *The artikl analyzes the word usage skills of Shermuhammad Munis, a representative of uzbek literature.*

Kalit so'zlar: *Munis, Ogahiy, mirob, g'azal, qiyos usuli, tatabbu', tamsil, adabiy ta'sir, badiiy mahorat, antroponim.*

Key words: *Munis, Ogahiy, mirob, Ghazal, comparison, fable (example) literary, influence, artistic skil, antoponim .*

XIX asr Xorazm adabiy muhitining yetuk namoyandalaridan biri Munis Xorazmiydir. Shermuhammad Munis Xorazmda yashagan mashhur tarixchi, epchil siyosatchi, mohir tarjimon bo'lib, 1778- yilda Xivaning Qiyot qishlog'ida Avazbiy mirob oilasida tug'ildi. Otasi yuz urug'idan chiqqan mashhur mirob edi. Miroblik Xiva xonligidagi eng katta mansablardan biri edi. Shermuhammad boshlang'ich ta'limni qishloq maktablaridan birida oldi, so'ngra Xiva madrasalarida o'qidi. Bilim olishga zehn qo'ydi, arab, fors tillarini o'rganib, xattotlikda kamolotga erishdi, tarix ilmini o'rgandi. Shoир betakror, go'zal she'rlar yozib, xalq orasida tanildi va o'ziga « munis », ya'ni « do'st, ulfat, hamdam » degan taxallusni tanladi. Biz uning tarjimayi holiga oid ma'lumotlarni "Munis ul-ushshoq" asari "Debocha" sidan o'rganamiz. Shoир "Firdavs ul-iqbol" devonini tuzdi, unda ham o'spirinlik yillari zavq-shavq bilan kechganini yozadi. 1800- yil otasi, so'ng onasi, inisi vafot etadi. Avazbiy inoq Shermuhammadni saroyning farmonnavis kotibi qilib tayinlaydi. 1804- yili Munis o'zining ilk devoni "Devoni Munis"ni tuzdi. Shu yili Avazbiy inoq vafot etib, Eltuzar, 1806- yili esa Muhammad Rahimxon I 1825- yilgacha Xiva taxtiga chiqadi va Munisga 1821- yili bosh miroblik mansabini berdi. U o'g'li, ayoldidan ajraldi. 22 yoshida g'am-anduhlar bilan to'la hayoti boshlandi. 1829- yili Xurosonga harbiy yurishdan qaytayotib, vabo kasali bilan vafot etdi. Qabri Qiyot qishlog'ida.

Munis qasidachilikda sermahsul ijod etgan. Avazbiy inoq, Eltuzar, Muhammad Rahimxon I, Olloqulixon va boshqa mashhur kishilarga qasidalar yozgan. Lekin g'azal uning ijodida eng ko'p uchraydigan janrdir. Boshqa shoirlar ijodida deyarlik uchramaydigan jihatlaridan biri shundaki, u hajman katta – 23, 24, 33 baytli g'azallar ham yaratgan.

Adabiy merosi:

- 1) “Devoni Munis” – ilk devon, 1804- yil 17 noyabrda tartib berilgan;
- 2) “Savodi ta’lim” (1804- yil 6-dekabr) – pedagogik risolasi, o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan¹;
- 3) “Firdavs ul - iqbol” (yoki “Saodat bog‘i”) Eltuzarxon taklifi bilan 1806-yilda boshlagan. Unda qadimgi davrlardan boshlab, 1812- yilgacha bo‘lgan Xorazm tarixi berilgan²;
- 4) “Ornalar”– Xorazm sug‘orilish tarixi, tarmoqlari haqida;
- 5) “Munis ul-ushshoq” (Oshiqlar do‘sti) “Hazrati Sulton Sohibqironning akasi, davlat xil’atining yaqosi” bo‘lgan Amiri kabir Qutlug‘murod Inoqning maslahati bilan 1814-15- yillarda bu mukammal devonni tuzgan. Unda 8446 bayt she’r bor. “Debocha” ham berilgan. 679 g’azal, 77 ruboiy..., ilk devonda esa debocha yo‘q, 204 g’azal, 72 ruboiy bor.

Munisning she’riy asarlarining o‘zi 10 000 baytdan ko‘proq. Shoir devonining 10 dan ortiq toshbosma va qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston Respublikasi FA Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Shoir ijodiy merosining ilmiy tadqiqi bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilgan³.

1804- yil yozgan ilk devonida ushbu tuyuq bo‘lib, devonni shoir o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan:

Muniso, to‘kmay yigirma yetti yosh,
Voh, yigirma yetti uzra yetti yosh.
Yosh kibi mashg‘ullik qilmoq nedur,
Har qachonkim, suhbatingga yetti yosh.

Munis – xattot. U 1794- yil 16 yoshida Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarini xatolarsiz savodli ko‘chirgan⁴. 1797- yil “Holoti Sayyid Hasan Ardascher” asarini ham kitob qildi.

¹ Jumayev Nusratilla. Munisning “Savodi ta’lim” risolasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1978. – №6. – B.54.

² Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Nashrga tayyorlovchilar: N.Jumaxo‘ja, S.Ro‘zimboyev, A.Ahmedov. – T.: “O‘qituvchi”, 2010.

³ Yunusov Mahmudali. Munis she’riyati // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1978. – №6. – B.48. Jumayev Nusratilla. Munis lirikasida peyzaj // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1982. – №2. – B.45. Shu muallif. Munisning avtobiografik g‘azallari // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1983. №3. – B.10.

⁴ Tursunov Yusuf. Navoiy “Mezon ul-avzon”ining Munis ko‘chirgan qo‘lyozma nusxasi haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1975. – №5. – B.57.

“Savodi ta’lim” asari masnaviyda yozilgan bo’lib, eski o’zbek yozuvini o’rganishda, husnixatni egallashda yordam beradi. Ilmiy she’riyatning namunasi bo’lgan bu asar yozuv uchun qo’llanma edi. Sharqda ilmiy she’rlar urjuzalar deyilgan va u rajaz bahrida yaratilgan. Ibn Sino tibbiyotga oid 8 ta urjuza yozgan. Arab tilshunosi Muhammad ibn Malik arab grammatikasi haqida “Alfiya” (Mingbayt), Ahmad ibn Majid suzish haqida urjuza yozgan.

Munis – tarjimon. Xon topshirig‘i bilan 1819- yil Mirxondning “Ravzat us-safo” (Poklik bog‘i) asarini tarjima qilgan. Fors tilidan o’zbekchaga birinchi va ikkinchi jildining yarmigacha tarjima qildi, uni Ogahiy oxiriga yetkazdi.

Munis badiiy ijodda Navoiyni o’ziga pir deb bildi:

So‘z ichra Navoiyki, jahongir turur,
Munisga maoniy⁵ yo‘lida pir durur
Yo‘q g‘ayriyat⁶ andin o‘zgakim ayturlar:
Bu Shermuhammad, ul Alisher durur.

Munis o‘z ismining “Sheri Muhammad” (Muhammadning sheri) va Alisher nomining “Ali sher”ligiga ishora qilmoqda. Ismlar o‘xshashligi asosi shundaki, Muhammad payg‘ambarimiz kuyovi Ali Ibn Abu Tolibni “Sherim” degan.

“She’r ul tig‘i dudamdurkim” g‘azalida she’rni jahonni lashkar tortmay egallaydigan qilichga o‘xhatgan:

She’r ul tig‘i dudamdurkim, jahonni fath etar,
Chekmayin lashkar gar olsa ilkiga har podshoh.

G‘azalda o‘xshatish, talmeh san’atlari ishlatilgan. Munis Navoiy bilan maslakdosh edi. U o‘z ijodini Navoiy ijodiga monand ekanidan faxrlanadi. Yuqoridagi g‘azal ham Navoiy uslubini eslatadi. Shahmat sharq xalqlarining sevimli o‘yinlaridan biridir. Munis ham bu o‘yin sirlarini puxta egallagan, she’riyatida shahmat donalariga ishora holatlari ham ko‘plab uchraydi. Barcha zamonlarda to‘g‘riso‘z odamlarga (“rux”) qiyin bo’lgan, shuning uchun ham ular shoh iltifotidan chetda. Har bir narsadan o‘z manfaatini o‘ylovchi, bu borada har qanday egri yo‘llarga yurishga tayyorlarga (“Farzin”) esa yo‘l ochiq. Xuddi shu baytga monand satrlar Navoiy ijodida ham ko‘zga tashlanadi.

Davlating bordida bordur ahli olam oshno,
Qaytgach davlat, jahonda topilur kam oshno.

Haqiqiy do‘sst tanlashda e’tiborli bo‘lishga chorlovchi bu misralarda kishi mol-dunyo uchun do‘sst tanlamaslikni, moddiy manfaatdorlikni ko‘zlab ulfat bo‘lmaslikni aytadi.

⁵ Maoniy – ma’noning ko‘pligi.

⁶ G‘ayriyat – farq.

Ayrim g‘azallarida shoirlar ahvoli, badiiy so‘z qadri, she’riyat taqdiri, kambag‘allik va ijtimoiy hayotdan norozilik iztiroblarini tasvirlaydi:

Garchi avval bor edi mahbubi gul ruxsora so‘z,

Lek erur holo base mankubu baxti qora so‘z.

So‘z – ilohiy hodisa. Uning bir jumlesi o‘n sakkiz ming olamning yaralishiga sabab bo‘ldi (“Kun” – yaral). Shunday ekan, har bir so‘zning qadri butun bir olamga teng, uning qadri baland, e’tibori yuksakdir. So‘z qadrini o‘z qadri deb bilgan shoir har bir so‘zni dur donasidek nodir qila olgan.

“Shuaro” (Shoirlar) radifli g‘azalida shoirlar ahvoli, ularning hayotdan norozilik kayfiyatini badiiy aks ettirgan, ushbu g‘azalning keyingi o‘rinlarida it va raqib obrazlarining ajoyib talqini berilgan bo‘lib, bu uslub Navoiyning “Qaro ko‘zum” g‘azalini esga soladi. “Qilmangiz”, “Oshno”, “Ahhob” radifli g‘azallari esa do’stlik mavzusidadir. Shoirning “Ustozlar e’tirofi” g‘azali boshdan oyoq talmeh san’atiga asoslangan. Navoiyning “Bo‘lg‘usi” g‘azaliga Munis taxmis bog‘lagan. Bu muxammasda inson ma’naviy-ruhiy olamining o‘ziga xos talqinini ko‘rish mumkin.

Munis ijodini kuzatar ekanmiz, shoirlik mahorati bilan birga uning muarrixlik salohiyati, tarjimonlik iqtidori, pedagoglik talantining guvohi bo‘lamiz. Shoir yaratib ketgan adabiy meros hali ko‘p tadqiqotlarga asos bo‘la oladi. Bu ishni amalga oshirish esa siz o‘quvchilarning e’tiborlaringizga havola qilinadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Jumayev Nusratilla. Munisning “Savodi ta’lim” risolasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1978. – №6. – B.54.
2. Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Nashrga tayyorlovchilar: N.Jumaxo‘ja, S.Ro‘zimboyev, A.Ahmedov. – T.: “O‘qituvchi”, 2010.
3. Yunusov Mahmudali. Munis she’riyati // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1978. – №6. – B.48
4. Jumayev Nusratilla. Munis lirkasida peyzaj // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1982. – №2. – B.45. Shu muallif. Munisning avtobiografik g‘azallari // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1983. №3. – B.10.
5. Tursunov Yusuf. Navoiy “Mezon ul-avzon”ining Munis ko‘chirgan qo‘lyozma nusxasi haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1975. – №5. – B.57.
6. A’zamxonov S.X. Modern concepts of human capita measurement <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527> Том. 11 № 5
(2023): ФИЛДЖЕШ

7. A'zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533> vol. 2 no. 20 (2023): *pedagogical sciences and teaching methods* 247-254-bet
8. A'zamxonov S.X. Ta'limgarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari <https://bestpublication.org/index.php/iz/article/view/1106> vol. 2 no. 22 (2022): *ijodkor o'qituvchi* 381-386-bet
9. A'zamxonov S.X. Ta'limgarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272> vol. 1 no. 12 (2022): *o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali* 453-459-bet
10. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>
11. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 5. – С. 469-473.